



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
Журабаев Абдукарим Маматкулович	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна	

KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand Kampusi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlik kabi 4K ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi konstruktiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning bilimni mustaqil ravishda anglash va amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning nazariy hamda metodik jihatlarini yoritilib, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot va jamoaviy ishlash ko'nikmalarining shakllanishi tahlil etiladi. Olingan natijalar mazkur yondashuvni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash va ta'lim sifatini yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: konstruktiv yondashuv, 4K ko'nikmalar, kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikativlik, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim innovatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the development of 4K skills in students, such as creativity, critical thinking, collaboration, and communication, during primary education based on a constructive approach. The study highlights the theoretical and methodological aspects of forming an educational environment aimed at students' independent cognition and practical application of knowledge, and substantiates the didactic possibilities of interactive methods, problem-based learning, and project-based learning technologies. Also, in lessons organized on the basis of a constructive approach, the formation of students' activity, independent thinking, communication and teamwork skills is analyzed. The results obtained show that by applying this approach, it is possible to increase educational efficiency, ensure the intellectual development of students, and improve the quality of education.

Key words: constructive approach, 4K skills, creativity, critical thinking, collaboration, communicativeness, primary education, interactive methods, problem-based learning, project-based learning, pedagogical technologies, educational innovations.

Аннотация: В данной статье на основе конструктивного подхода анализируется вопрос развития у учащихся таких 4K-навыков, как креативность, критическое мышление, сотрудничество и коммуникативность, в процессе начального образования. В исследовании освещаются теоретические и методические аспекты формирования образовательной среды, направленной на самостоятельное понимание и практическое применение знаний учащимися, обосновываются дидактические возможности интерактивных методов, проблемного обучения и технологий обучения на основе проектов. Также анализируется активность учащихся, самостоятельное мышление, формирование навыков общения и командной работы на уроках, организованных на основе конструктивного подхода. Полученные результаты показывают, что применение данного подхода может повысить эффективность обучения, обеспечить интеллектуальное развитие учащихся и улучшить качество образования.

Ключевые слова: конструктивный подход, навыки 4K, творчество, критическое мышление, сотрудничество, коммуникативность, начальное образование, интерактивные методы, проблемное обучение, проектное обучение, педагогические технологии, образовательные инновации.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar natijasida o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal eta olishga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu bosqichda o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda.



Hozirgi davr ta'limida alohida e'tibor qaratilayotgan muhim yo'nalishlardan biri bu - 4K ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Ular kreativlik (yangicha g'oyalarni yaratish qobiliyati), tanqidiy fikrlash (axborotni tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish), hamkorlik (jamoada ishlash) va kommunikativlik (fikrni aniq va samarali ifodalash) kabi muhim kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatini ham belgilab beradi.

An'anaviy ta'lim yondashuvlari ko'pincha o'quvchini passiv qabul qiluvchi sifatida shakllantiradi, bunda bilimlar tayyor holda beriladi va o'quvchining mustaqil izlanish faoliyati yetarli darajada rag'batlantirilmaydi. Natijada o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmay qolishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga konstruktiv yondashuvni joriy etish zarurati yuzaga keladi. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bilim o'quvchi tomonidan faol ravishda quriladi, ya'ni o'quvchi o'z tajribasi, kuzatuvlari va muloqoti asosida bilim hosil qiladi. Ushbu yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi hamda uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aynan konstruktiv yondashuv 4K ko'nikmalarni shakllantirish uchun samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, kichik guruhlarda ishlash va loyiha faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning fikr almashish, savol berish va o'z qarashlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhiti shakllanib, ijtimoiy kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini tahlil qilish hamda ushbu yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot doirasida konstruktiv ta'limning nazariy jihatlari, 4K ko'nikmalarni shakllantirish usullari hamda ularni amaliyotda qo'llash mexanizmlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida o'quvchilarda 4K ko'nikmalar - kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlikni shakllantirish masalasi alohida e'tibor markaziga aylangan. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'limning mazmuni bilan bir qatorda uning metodik asoslari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, konstruktiv yondashuv pedagogik jarayonni tashkil etishda samarali metodologik asos sifatida ko'rilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda konstruktiv yondashuvning nazariy asoslari J. Piaget, L. Vygotskiy, J. Bruner kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bilimni o'quvchi tomonidan faol ravishda quriladigan jarayon sifatida talqin etadilar. Piaget nazariyasiga ko'ra, o'quvchi yangi bilimlarni mavjud kognitiv tuzilmalar asosida o'zlashtiradi, Vygotskiy esa ijtimoiy muhit va hamkorlikning bilim hosil qilishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Bruner tomonidan ilgari surilgan kashfiyot asosida o'qitish (discovery learning) g'oyasi esa o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv yondashuvning nazariy asoslari pedagogika fanida muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvning shakllanishi mashhur olimlar - J. Piaget, L. Vygotskiy va J. Bruner ilmiy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, ularning asosiy g'oyalari 1-rasmda keltirilgan.


1-rasmda konstruktiv yondashuvning asosiy nazariy manbalari tasvirlangan bo'lib, unda bilimni o'zlashtirishning individual, ijtimoiy va faol o'rganish jihatlari o'zaro bog'liq holda ko'rsatilgan. Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'limda 4K ko'nikmalarni shakllantirish uchun muhim metodik asos hisoblanadi.

4K ko'nikmalar tushunchasi ham zamonaviy pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, u XXI asr kompetensiyalari sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Xususan, kreativlik yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini, tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilishni, hamkorlik jamoada samarali ishlashni, kommunikativlik esa fikr almashish va muloqot madaniyatini rivojlantirishni anglatadi.

Boshlang'ich ta'limda 4K ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish metodlari bu ko'nikmalarni to'liq shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va hamkorlikda o'rganish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.


Konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi ham ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar tashkil etish va loyiha faoliyatini joriy etish orqali o'quvchilarda yuqori darajadagi

fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, o'quvchining faol subyekt sifatida ishtirok etishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar yordamida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi ham muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Interaktiv platformalar, onlayn hamkorlik vositalari va multimediya resurslari o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.



1-rasm: **Konstruktiv yondashuvning nazariy asoslari (Piaget, Vygotskiy, Bruner modeli)**

Konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida turli pedagogik metodlardan kompleks foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlarning asosiy turlari va ularning o'zaro bog'liqligi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm: **Konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari klassifikatsiyasi**



2-rasmda konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar tasniflangan bo'lib, ular interfaol, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish va loyiha asosida o'qitish metodlari sifatida guruhlangan. Mazkur metodlar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilganda o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlik ko'nikmalarining kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Ko'plab ilmiy ishlarda konstruktiv yondashuvning samaradorligi eksperimental tadqiqotlar orqali isbotlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar va hamkorlik muhiti shakllanadi.

Mazkur tadqiqot ishida ham aynan konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar asosida shakllangan nazariy qarashlar amaliy metodlar bilan uyg'unlashtirilib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri asoslab beriladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarni (kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlik) rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida konstruktiv yondashuvga asoslangan eksperimental-pedagogik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni o'quvchilarning ta'lim faoliyatidagi ishtirokini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik model asosida tashkil etildi.

Tadqiqot bir necha izchil bosqichlardan iborat bo'lib, unda o'quv jarayonini rejalashtirish, konstruktiv yondashuv asosida darslarni tashkil etish, 4K ko'nikmalarni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llash hamda olingan natijalarni baholash jarayonlari amalga oshirildi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning bilimni mustaqil egallashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayoni izchil va mantiqiy ketma-ketlik asosida tashkil etildi. Avvalo, o'quvchilarning 4K ko'nikmalar bo'yicha dastlabki darajasini aniqlash maqsadida diagnostik bosqich amalga oshirildi. Ushbu bosqichda savolnomalar, kuzatuv va test topshiriqlari orqali o'quvchilarning kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik hamda kommunikativlik ko'nikmalari baholandi.

Keyingi bosqichda konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Mazkur model dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirildi. Shundan so'ng eksperimental ta'lim jarayoni yo'lga qo'yildi. Bu bosqichda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, kichik guruhlarda ishlash hamda loyiha asosida o'qitish texnologiyalari amaliyotga joriy etildi. O'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etib, muammolarni birgalikda hal qilishga va o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rgatildi.

Tadqiqot davomida nazorat va monitoring ishlari ham muntazam olib borildi. O'quvchilarning rivojlanish dinamikasi kuzatilib, ularning darsdagi faolligi, ishtiroki va o'zlashtirish darajasi tahlil qilindi. Bu esa jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish imkonini berdi. Yakuniy bosqichda olingan natijalar baholandi. O'quvchilarning 4K ko'nikmalaridagi o'zgarishlar mezonlar asosida qayta tahlil qilinib, dastlabki natijalar bilan solishtirildi. Natijada konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligi aniqlab berildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini baholash uchun sifat va miqdoriy mezonlar tizimidan foydalanildi. Xususan, kreativlik darajasi - yangi g'oyalar yaratish qobiliyati orqali, tanqidiy fikrlash - muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish orqali, hamkorlik - jamoaviy ishlash samaradorligi orqali, kommunikativlik esa fikrni aniq va mantiqiy ifodalash darajasi orqali baholandi.

Mazkur metodologiya konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini kompleks tarzda aniqlash hamda 4K ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida 4K ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o'quvchini bilimni tayyor qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida qaraydi. Shu sababli dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, muammoli vaziyatlarni hal etishi va jamoaviy ishlashi asosiy o'rin egallaydi.

Konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar izchil va mantiqiy bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dars jarayonida avvalo o'quvchilarni fikrlashga undovchi muammoli vaziyat yaratiladi, so'ngra ular mustaqil ravishda yechim izlashga yo'naltiriladi. Keyingi bosqichda o'quvchilar o'zaro muhokama olib borib,

hamkorlikda yechim ishlab chiqadi va yakunda umumiy xulosalar shakllantiriladi. Ushbu jarayon o'quvchilarning bilimni chuqur anglashiga hamda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni o'zaro bog'liq pedagogik omillar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning konseptual modeli 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm: **Konstruktiv yondashuv asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish modeli**

3-rasmda konstruktiv yondashuv asosida ta'lim metodlari va o'quvchi faoliyati o'zaro uyg'unlashgan holda 4K ko'nikmalarni shakllantirishi tasvirlangan. Mazkur model ta'lim jarayonining mantiqiy tuzilmasini hamda uning natijaviyligini ifodalaydi. Kreativlik ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarga ochiq turdagi savollar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vazifalar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularda yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi esa ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va asosli xulosalar chiqarish orqali rivojlantiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga "nima uchun?" va "qanday qilib?" kabi savollar berish muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlik ko'nikmasi kichik guruhlarda ishlash orqali shakllanadi. O'quvchilar jamoa bo'lib muammoni hal qiladi, fikr almashadi va umumiy qarorga keladi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Kommunikativlik ko'nikmasi esa o'quvchilarning o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi orqali rivojlanadi. Dars jarayonida bahsmunozaralar va savol-javoblar tashkil etish bu ko'nikmani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, ularning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bilim egalidaydi, balki uni amaliy faoliyatda qo'llashni ham o'rganadi.


Shunday qilib, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni 4K ko'nikmalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi eksperimental tarzda baholandi. Tadqiqotda o'quvchilarning kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlik ko'nikmalari dars jarayonidan oldin va keyin diagnostik mezonlar asosida tahlil qilindi.

Dastlabki bosqichda o'quvchilarning 4K ko'nikmalari darajasi nisbatan past yoki o'rtacha ekanligi kuzatildi. Xususan, o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, muammoni tahlil qilish hamda jamoada samarali ishlash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Bu holat an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi bilan izohlanadi.

Eksperimental ta'lim jarayonida konstruktiv yondashuv asosida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, guruhli topshiriqlar va loyiha faoliyati tizimli ravishda qo'llanildi. Natijada o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshdi, ular o'z fikrlarini erkin bayon eta boshladi va muammolarni mustaqil hal qilishga intilish kuchaydi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning 4K ko'nikmalari rivojlanish darajasi eksperimental ta'limdan oldin va keyin qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm: 4K ko'nikmalar rivojlanish darajasi (tajriba oldi va keyingi natijalar)

4-rasmda 4K ko'nikmalar bo'yicha dastlabki va yakuniy natijalar taqqoslangan bo'lib, barcha ko'nikmalar bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, hamkorlik va kommunikativlik ko'nikmalarida sezilarli rivojlanish qayd etilib, bu konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, kreativlik ko'nikmasi o'quvchilarda yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammoga turli yondashuvlarni taklif qilish orqali sezilarli darajada rivojlandi. Tanqidiy fikrlash esa o'quvchilarning savollarga chuqurroq yondashishi va asosli xulosalar chiqarishi orqali namoyon bo'ldi. Hamkorlik ko'nikmasi guruhli ishlarda faol ishtirok etish orqali mustahkamlandi, kommunikativlik esa o'quvchilarning o'z fikrini aniq va ravon ifodalashida yaqqol ko'zga tashlandi.

Umuman olganda, eksperimental natijalar konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni 4K ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama: Mazkur tadqiqot natijalari konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogika sohasida olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlikda ekanligi kuzatildi.

Xususan, konstruktiv yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan J. Piaget o'quvchining bilimni mustaqil qurish jarayonini asoslab bergan bo'lsa, L. Vygotskiy ijtimoiy muhit va hamkorlikning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ham aynan o'quvchilarning guruhli ishlarda faol ishtiroki va o'zaro muloqoti ularning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari 4K ko'nikmalar o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatdi. Masalan, guruhli ishlarda hamkorlik ko'nikmasi rivojlanishi bilan birga kommunikativlik ham shakllanadi, muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida esa tanqidiy fikrlash va kreativlik birgalikda namoyon bo'ladi. Bu esa 4K ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida ayrim qiyinchiliklar ham kuzatildi. Xususan, o'quvchilarning dastlabki bosqichda mustaqil ishlashga moslashishi biroz vaqt talab qildi. Ayrim o'quvchilar guruhli ishlarda faol ishtirok etishda qiynaldi. Bu holat konstruktiv yondashuvni samarali joriy etish uchun o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik va darsni to'g'ri tashkil etishni talab qilishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni uzoq muddatli natijalar berishi mumkin. O'quvchilarda shakllangan 4K ko'nikmalar keyingi bosqichlarda ham ularning o'qish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni mustaqil, faol va ijtimoiy moslashuvchan shaxs sifatida rivojlantiradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari konstruktiv yondashuvni boshlang'ich ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida jalb etish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish va muammoli vaziyatlar asosida o'qitish orqali ularning intellektual hamda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida aniqlanishicha, konstruktiv yondashuvni qo'llash o'quvchilarning kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativlik ko'nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, interfaol metodlar va guruhli faoliyat orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshadi, ular o'z fikrini erkin ifodalashga va jamoada ishlashga moslashadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 4K ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni izchil va tizimli yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda konstruktiv yondashuv metodik jihatdan asosli va samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchining roli yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy jamiyat talablariga mos, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Piaget, J. (1970). *Science of Education and the Psychology of the Child*. New York: Orion Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Bruner, J. S. (1961). *The Act of Discovery*. *Harvard Educational Review*, 31(1), 21–32.
4. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Partnership for 21st Century Skills (P21). (2019). *Framework for 21st Century Learning*. Available at: <https://www.battelleforkids.org>
6. OECD. (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing.
7. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). *A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences*. *Journal of Curriculum Studies*.
8. Hmelo-Silver, C. E. (2004). *Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn?* *Educational Psychology Review*.
9. Nishonov, N. N. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash*. Toshkent: Fan.
10. Ochildiyev, B. R. (2019). *Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish*. Toshkent.
11. Rasulov, A. X. (2021). *Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish*. Toshkent.
12. Soliyev, S. T. (2022). *Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv*. Toshkent.
13. Xalilov, O. O. (2020). *Pedagogik mahorat va innovatsion faoliyat*. Toshkent.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ta'limga oid normativ hujjatlar. <https://lex.uz>
15. Ziyonet ta'lim portali. <https://ziyonet.uz>
16. Google Scholar ilmiy maqolalar bazasi. <https://scholar.google.com>
17. ResearchGate ilmiy tarmog'i. <https://www.researchgate.net>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.